



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASINING QARORI

2022 y. “30” iyun № 22

“Qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ- 4796- son qaroriga muvofiq, qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, Davlat statistika qo‘mitasi qaror qiladi:

1. Qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat statistika qo‘mitasining 2015- yil 2- apreldagi “Qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 5- son qarori, 2018- yil 30- apreldagi “Qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi 11- son qarori va 2020- yil 27- avgustdagi “Qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 27- son qarori bekor qilinsin.

3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov